

## NAVOIY VA JOMIY IJODIDA TASAVVUF FALASAFASINING BADIY TALQINI

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

**Solijonova Marjona Sadirdin qizi**

**Anotatsiya:** Mazkur maqolada XV asrning ikki buyuk mutafakkiri- Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodida tasavvuf falasafasining badiiy talqini keng yoritiladi. Tasavvufning asosiy tushunchalari bo'lgan ilohiy ishq, vahdat ul-vujud, komil inson, nafs tarbiyasi, ma'rifat va ruhiy kamolot masalalari har ikki ijodkor merosida qanday badiiy shakl olgani ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, Jomiy va Navoiy o'rtasidagi ustoz-shogirtlik munosabatlari tasavvufiy ta'limotning mazkur davrdagi rivojlanishiga ko'rsatgan ta'siri nuqtai nazardan o'rganiladi. Maqola tasavvuf falasafasining nazariy va badiiy qatlamlarini qiyosiy o'rganish orqali Sharq adabiy tafakkurining rivojidagi o'ziga xos jarayonlarni yoritishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Navoiy, Jomiy, tasavvuf, ilohiy ishq, ma'rifat, komil inson, vahdat ul-vujud, badiiy ramz, ruhiy poklanish.

Sharq adabiy merosida tasavvuf falasafasi yuksak badiiy tafakkurning shakllanishida beqiyos o'ringa ega. Xususan, XV asrning Xuroson adabiy muhiti tasavvuf tafakkurining eng yuksak darajada namoyon bo'lgan davrlaridan biridir. Bu davrda yashab ijod qilgan Jomiy va Navoiy tasavvuf falsafasini nafaqat nazariy jihatdan balki, badiiy-estetik shaklda ham chuqur talqin etgan ijodkorlar sanaladi.

Jomiy- o'z zamonasining ulug' mutasavvifi, tasavvufning ilohiy-ma'rifiy sirlarini, risola, masnaviy va nazariy asarlar orqali sharhlagan buyuk alloma. Navoiy esa ushbu ilmiy-falsafiy merosni badiiy yuksaklik darajasiga ko'targan, sharq poetikasida tasavvufning eng poetik talqinini yaratgan shoirdir.

Har ikki ijodkorni umumlashtiruvchi jihatlar ko'p bo'lsa-da, ularning tasavvufga yondashuvi turlicha. Jomiy tasavvufni ilmiy-nazariy, hikmatli, risolaviy shaklda talqin

etadi, Navoiy esa uni badiiy ramzlar, poetik obrazlar va dramatik voqealar orqali tasvirlaydi. Ana shu ikki yo'nalishning uyg'unligi tasavvufning mazkur davrdagi taraqqiyotida g'oyat muhim rol o'ynagan. Abdurahmon Jomiy Movarounnahr va Xuroson tasavvuf maktabining eng yirik vakillaridan biridir. U o'z asarlarida tasavvufning ichki mohiyatini sharhlash bilan birga, unga falsafiy asos yaratgan mutasavviy sifatida tanilgan. Jomiy nazarida ish - borlqining harakatlantiruvchi kuchi. Shoirning asarlarida ilohiy ishq inson ruhini poklaydigan, uni Haq sari olib boradigan ilohiy nurni anglatadi. U "Sabhat ul-abror"da ishqni shunday ta'riflaydi: "Ishq - qalbni kuda tutuvchi, ammo ruhni yuksaltiruvchi ilohiy olovdir". Jomiy tasavvufning asosiy maqsadi sifatida insonning komillika erishishini ko'rsatadi. Uningcha, komillik- bu insonning o'z nafsini yengishi, ma'rifat sari yuksalishi va ilohiy haqiqatni anglashidir. "Nafohot ul-uns"da keltirilgan avliyolar hayoti orqali bu jarayon aniq misollar bilan ochib beriladi. Bundan tashqari, Abdurahmon Jomiy Ibn Arabiy ta'limoti asosida vahdat ul-vujud g'oyasini sharhlaydi. U mavjudotning barcha shakllari yagona haqiqat - Haqning zohiri bo'lib, inson har bir narsada Haqning tajallisini ko'ra olishi lozim degan fikrlarini ilgari suradi. Bu fikrlar uning she'riy misralari, hikmatlarida ham o'z ifodasini topgan. Jomiy ijodida tasavvuf ma'lum bir qat'iy ilmiy tizimga solingan bo'lib, unda bandaning Haqqa yaqinlashuvi bosqichma - bosqich izohlanadi. Shu bois uning asarlari so'fiylik ilmiy qo'llanmasi darajasida qadrlangan.

Alisher Navoiy tasavvufni badiiy obrazlar orqali ifoda etgan eng yirik o'zbek mutafakkiridir. Uning asarlarida tasavvuf nazariyasi sifatida emas, balki qalb holati, tuyg'u, ruhiy kechinma, hayotiy izlanish jarayoni tarzida tasvirlanadi. Navoiyning "Layli va Majnun" masnaviyida Majnunning ishq nafaqat insoniy sevgi, balki ilohiy ishqqa yetish yo'lida ramziy kechinmalar sifatida talqin qilinadi. Majnunning sahrolarga chiqishi- nafsdan voz kechish, jismoniy hayotdan uzilish; Layliga sadoqat - Haqqa sadoqat timsolidir. "Farhod va Shirin" ham Farhodning mashaqqatli yo'li - tasavvuf yo'lini eslatadi. "Hayrat ul-abror" Navoiyning tasavvufiy dunyoqarashi eng yorqin ifodalangan asarlaridan biridir. Asarda insonning botiniy sayohati, ruhiy poklanish, nafsning yetti pog'onasi, axloqiy sifatlar poetik misralar va hikmatlar orqali tasvirlanadi.

Navoiy g'azallarida “yor”, “jonon”, “mahbub”, “nur”, “soya” obrazlari vahdat ul-vujud g'oyasining ramzlari tarzida talqin etiladi. Shoirning fikricha, borliqning har bir zarrachasida ilohiy tajalli mavjud. Inson esa uni sevgi, idrok va ma'rifat orqali ko'ra oladi. Navoiy tasavvufni ilmiy mantiqdan ko'ra ruhiy kechinma va badiiy his orqali ifodalanadi. Bu uning Jomiydan farq qiladigan eng katta jihatidir. Har ikki shoir ijodida tasavvufning umumiy tamoyillari o'z ifodasini topgan. Jomiyda bu ilmiy tushuncha sifatida, Navoiyning asarlarida esa badiiy obrazlar orqali tasvirlanadi. Jomiy - komillikning nazariy sharhlovchisi, Navoiy - komil inson obrazini yaratgan badiiy san'atkor. Har ikkala ijodkor insonning ruhiy kamolot darajalarini tasvirlaydi. Navoiy buni dramatik syujetlar orqali, Jomiy esa hikmatlar, nazariy tushunchalar orqali yoritiladi.

Navoiy Jomiyi ustoz sifatida chuqur hurmat qilgan. Navoiy uchun Jomiy - nafaqat adabiyot ahli, balki so'fiylik yo'lida pir, ma'naviy yetakchi. Jomiy esa Navoiyning iste'dodini yuksak baholab, uning ijodida tasavvufning o'ziga xos poetik maktabini ko'rgan. Bu ikki shaxs o'rtasidagi ruhiy yaqinlik tasavvufning asosiy g'oyasi - murshid - muridlik an'anasining davomiyligidan dalolat beradi. Navoiy va Jomiy ijodi Sharq adabiy tafakkurida tasavvufning naqadar teran ildizlarga ega ekanini namoyon qiladi. Jomiy tasavvufni nazariy jihatdan yuksak ilmiy darajada sharhlagan bo'lsa, Navoiy uni badiiy timsollar va poetik obrazlar vositasida yuksak ijodiy darajada talqin etgan. Ularning tasavvufiy merosi bizgacha yuksak ma'naviy ta'limot sifatida yetib kelgan bo'lib, bugungi adabiyotshunoslik uchun ham bebaho ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tasavvufning o'zagini tashkil etuvchi ilohiy ishq, komil inson, ma'rifat, ruhiy poklamish, nafsni yengish kabi tushunchalar bu ikki buyuk shoir ijodida eng go'zal shaklda badiiylashgan. Ular yaratgan badiiy dunyo tasavvufning nazariy va amaliy jihatlarini bir butunlikda mujassam etgani bilan butun Sharq adabiy tarixida alohida o'rin tutadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. –Toshkent: Yozuvchi,1991.
2. Abdurahmon Jomiy. Nafahot ul-uns. –Tehron nashrlari.
3. S.Mirzayev. Tasavvuf va adabiyot. – Toshkent: Fan, 2002